



Hududlarda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish usullari

Eminchayev Baxodir Sadikovich

Fargʻona davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolda O'zbekiston Respublikasining kichik hududlarida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish soxaga bo'lgan e'tibor va joriy yilgacha bo'lgan vaqtga qadar Respublikamizda kichik biznes va tadbirkorlik darajasini o'sib kelishi va hozirda rivojlangan davlatlarninig bu soxaga oid tutgan yo'llari haqida so'z boradi. Shu jumlamadan Respublikamiz Prezidentining soxaga bo'lgan e'tibori tadbqiq qilgan bir qator farmon va qarorlari keltirib o'tilgan va kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lida berilgan bir qator fikr va takliflar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Kichik tadbirkorlik, kichik biznes, tadbirkorlik subyekti, biznesning o'sishi, avtomatlashtirish, bizesmen, "Yangi O'zbekiston", xususiy sektor.

Abstract: In this article, the attention to the field of small business and entrepreneurship development in the small regions of the Republic of Uzbekistan and the growth of the level of small business and entrepreneurship in our Republic until this year, and the attitude of developed countries to this field. llar is mentioned. In this sentence, a number of decrees and decisions of the President of our Republic applied to the field, and a number of opinions and proposals for the development of small business and entrepreneurship are mentioned.

Key words: Small entrepreneurship, small business, business entity, business growth, automation, entrepreneur, "New Uzbekistan", private sector.

Kichik biznesni rivojlantirish jamiyat tarkibida o'rta qatlamning ulushini ortishi, shu bilan birga mamlakatdagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni ta'minlashning muhim



omili hisoblanadi. Kichik biznes AQSH, Germaniya, Xitoy, Fransiya, Yaponiya, Italiya kabi rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotni barqarorlashtirishda katta ahamiyat kasb etadi. «Xalqaro kichik biznes Kengashi (ICSB) ma'lumotlariga ko'ra, kichik biznes sub'ektlari barcha korxonalarining 90% dan ortig'ini, ish bilan band bo'lganlarning 60-70% ni, yalpi ichki mahsulotning 50% ni tashkil etadi». Ushbu korxonalar dunyoning rivojlangan mamlakatlari iqtisodiyotining asosini tashkil etadi, iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirishda ayollar va yosh tadbirkorlar hamda kam ta'minlangan aholi guruhlarini ishga joylashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Mamlakatimizda ham kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lida bir qator islohatlar olib borilmoqda. Hususan iqtisodiyotini yanada rivojlantirish uni istiqbolli kelajagini yaxshilash va xalqaro darajaga olib chiqishda hozirda keng tarqalib, rivojlanib borayotgan soxalardan biri bu kichik biznes va tadbirkorlikni misol qila olamiz. Hozirgi kunda Respublikamiz hududlarida kichik tadbirkorlik oldingi yillarga nisbatan sezilarli darajada o'sib bormoqda va bu borada olib borilayotgan islohotlar o'z natijasini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzuridagi Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2019-yil 13-avgustdagi PQ-4417-son qarorlari qabul qilinishi bilan sohaga bo'lgan e'tibor yanada kuchaytirildi va rivoj topishiga keng yo'llar ochildi. Hususan Respublikamiz Prezidenti tomonidan 2022-yil 19-apreldagi "Hududlarda tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari bilan kichik tadbirkorlikni yo'lga qo'yish yanada soddalashtirildi va soxaga oid qator qulayliklar va imkoniyatlar yaraytildi.

Mamlakatimizda Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish natijasida bugungi kunda mamlakatimizning yalpi ichki mahsulotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 58,9 foizga yetganligida o'z aksini topadi. Ushbu ko'rsatkich 2010-yilda 33,0 foizni 2021-yilda esa 54,5 foizni tashkil etganligi aytib o'tish maqsadga muvofiq.



Kichik biznes bilan bandlik statistikasini Amerika qo'shma shtatlaridagi korxonalarning ko'rsatkichlarini o'rganganimizda quyidagi misollarni keltirishimiz mumkin:

1. AQSh bo'ylab korxonalarning 99,9% kichik biznesdir. Mamlakatning eng yirik korporatsiyalari e'tiborga sazovor bo'lsa-da, AQSh kichik biznes ma'lumotlariga ko'ra, AQShdagi korxonalarning katta qismini kichik bizneslar tashkil qiladi. Aslida, faktlarni o'rgansak Amerika bo'ylab 33.2 million kichik bizneslar mavjut.

2. AQSh xodimlarining deyarli yarmi kichik biznesda ishlaydi. Shunga qaramay, kichik biznesning 80% dan ortiq ishchilari yo'qligiga qaramay, kichik korxonalarda 61,7 million ishchi ishlaydi. Bu barcha AQSh xodimlarining 46,4% ni tashkil qiladi. Kichik biznesning 20% dan kamrog'i hatto umuman ishchilarga ega bo'lgan xodimlarning katta foizi bu ish bilan ta'minlash va shu bilan birga omon qolish uchun ularga juda bog'liq bo'lgan mamlakatda kichik biznesning o'sishi qanchalik muhimligini ko'rsatadi. Yuqorida qayd etilgan ma'lumotlarga ko'ra, 33,2 million kichik biznesning 27,1 millioni yagona mulkdor tomonidan boshqariladi va ishchilari yo'q. Davom etadigan bo'lsak bu borada juda ko'plab ma'lumotlarni keltirish mumkin. Lekin biz Respublikamizda bo'lgan kichik biznesni o'sishi tahlil qilsak 2023-yil 1-fevral holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni o'zaro taqqoslanganda, mas'uliyati cheklangan jamiyatlardan keyin ikkinchi o'rinni xususiy korxonalaregallagan bo'lib (soni 89170 ta), ular sonining so'nggi yillardagidynamikasi quyidagicha:

-2019-yilda –75 826 ta

-2020-yilda –84 490 ta

-2021-yilda –90 898 ta

-2022-yilda –89 073 ta

-2023-yilda –89 170 ta

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish istiqbollari 2023-yilda mamlakatimizda tadbirkorlikning keng quloch yozishi, ularning ishonchli himoyasi va



faoliyatini yo'lga qo'yishi, samarali faoliyat ko'rsatishi uchun muhim tayanch nuqtasi bo'ladi.

Xalqimiz hayotida tadbirkorlik azaldan muhim o'rin tutib, asrlar davomida uning o'ziga xos an'analari asrab-avaylangan, bunday fazilatga ega insonlar hamisha qadrlangan. Buni birgina sohibqiron Amir Temur bobomizning —Azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi, mingta tadbirsiz va loqayd kishidan afzaldir, degan fikri ham yaqqol tasdiqlaydi.

Shu yilning 22-avgust kuni Xalqaro kongress markazida Tadbirkorlar kuniga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi. Prezident Shavkat Mirziyoev ochiq muloqot avvalida barchani bayram bilan tabriklab, tadbirkorlar mamlakatimiz iqtisodiy qudratini oshirish, tinch va farovon hayot barpo etishda asosiy kuch ekanini ta'kidladi. Tarixiy ahamiyatga ega uchrashuvda davlatimiz rahbari soha vakillarini qo'llab-quvvatlash yuzasidan besh yo'nalish bo'yicha muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

Birinchi yo'nalish—korxonalarni toifalarga ajratib, ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha alohida yondashuvni belgilashni nazarda tutadi. Bu borada korxonalar yillik aylanmasi bo'yicha toifalarga ajratiladi. Bular:

- ➡—1 milliard somgacha Bo'lgani —mikro biznes;
- ➡—10 milliard so'mgacha Bo'lgani —kichik biznes;
- ➡—100 milliard so'mgacha bo'lgani o'rta biznes toifasiga kiradi.

Ikkinchi yo'nalish—tadbirkorlarimiz faoliyatini kengaytirish, yangi loyihalarni amalga oshirish uchun qulay moliyalashtirish tizimini yaratishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Buning uchun bevosita kichik biznes loyihalariga 20 trillion so'm yo'naltirilishi ko'zda tutilgani e'tiborga loyiq.

Uchinchi yo'nalish—haqida so'z yuritish asnosida davlatimiz rahbari tijorat banklari tomonidan kredit berish masalaning faqatgina bir tomoni ekani, biznes yurib ketishi uchun yetarli shart-sharoit, infratuzilma va kafolatli bozor kerakligini alohida qayd etdi.



To‘rtinchi yo‘nalish—tadbirkorlarning mulk huquqini himoya qilish masalasi bilan bog‘liq. Ma‘ruzada ta‘kidlab o‘tilganidek, bundan buyon er va mulk ajratish haqidagi qarorlarni bekor qilish faqat sud tartibida amalga oshiriladi.

Beshinchi yo‘nalish—tadbirkorlar faoliyatini nazorat qilish va ularni javobgarlikka tortish masalalarini nazarda tutadi.

Bu borada yaqqol misol keltirsak bir necha yildan beri yurboshimiz tashabbusi bilan “Har bir oila tadbirkor” loyihasi keng ommalashib borayotganini ko‘rishimiz mumkin. Bu loyixa ayni biz o‘rganayotgan soxa yani “Hududlarda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish” mavzusiga ayni mos keladigan loyixa deya olamiz. Yuqorida keltirilgan bacha ma‘lumotlarga shuni qo‘shimcha qila olamanki biz qachonki rivojlanishni o‘zimizdan boshlasak albatta atrofimizdagi o‘zgarishlarga o‘z hissamizni qo‘sha olamiz va bu bizga xalq orasida hurmat olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eminchayev, B. (2023). O'ZBEKISTONDA ZAMONAVIY MAXSUS PEDAGOGIKANING HOZIRGI MUAMMOLARI. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(5 Part 2), 115-119
2. Eminchayev Bakhodir Sadikovich (2023) ANALYSIS OF THE DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURIAL ACTIVITY IN UZBEKISTAN
3. Eminchayev B. S. AJDODLARIMIZ TOMONIDAN E'TIROF ETILGAN PEDAGOGIK NAZARIYALAR TUSHUNCHASI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 16. – C. 444-446.
4. Sadikovich E. B. STRATEGIC PERSPECTIVES OF SMALL BUSINESS DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN //Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research. – 2023. – T. 10. – №. 09. – C. 321-324.



5. Sadikovich E. B. ANALYSIS OF THE DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURIAL ACTIVITY IN UZBEKISTAN //Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research. – 2023. – T. 10. – №. 09. – C. 318-320.
6. Eminchayev B. DEVELOPMENT TENDENCIES OF THE ECONOMY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – T. 3. – №. 5. – C. 751-754.